



SOLIQ TEKSHIRUVLARINI O'TKAZISHDA SOLIQ NAZORATI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Yusupov Odil Amanovich

TDIU «Soliqlar va sug'urta ishi» kafedrasida katta o'qituvchisi

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 3 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss3/a4	Ushbu ilmiy maqolada soliq ma'muriyatchiligini isloh etish, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish va rivojlanishining muhim omili bo'lgan «raqamli iqtisodiyot»ni shakllantirish, shuningdek, soliq nazorati sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni jadallashtirish masalalari aks ettirilgan. <i>Soliq nazorati, soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, resurs to'lovlari, davlat byudjeti, davlat soliq xizmati organlari, investitsion iqlim, soliq nazorati tamoyillari, soliq ma'muriyatchiligi, soliq monitoringi, kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi, soliq auditi.</i>
KEYWORDS	

Kirish

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajriba asosida soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish hamda soliq to'lovchilarning soliq organlari bilan o'zaro munosabatlarida shaffoflikni ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida ilg'or tajribalar asosida soliq va bojxona ma'muriyatchiligi jiddiy isloh qilinishi zarurligi ta'kidlab o'tildi, xususan:

«Byudjet xarajatlari, aholi va tadbirkorlar oldidagi majburiyatlarimizni qisqartirmagan holda, biznesga soliq yukini kamaytirish bo'yicha ishlarni davom ettiramiz. Jumladan, 1 yanvardan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 15 foizdan 12 foizga pasaytirish hisobidan tadbirkorlar ixtiyorida yiliga kamida 14 trillion so'm mablag' qoladi. Lekin biznes muhitini yaxshilash uchun faqat soliqni kamaytirishning o'zi etarli emas. Birinchi navbatda, ilg'or tajribalar asosida soliq va bojxona ma'muriyatchiligi jiddiy isloh qilinadi»[1].

Bir maromda iqtisodiy o'sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar mavjudligi ko'rinib qoldi, xususan:

- umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi;

- qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning samarasiz tizimi, soliq to'lovchilarning aylanma mablag'larini jalb qiladigan, shuningdek, iste'mol mahsulotining oraliq va yakuniy qiymati qimmatlashishiga olib keladigan hamda yirik va kichik biznes o'rtasidagi kooperatsiyaning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan majburiy to'lovlarning mavjudligi;

- soliq to'lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to'lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to'lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi;

- imtiyozlarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha ta'sirchan tizimning mavjud emasligi sababli sog'lom raqobatni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni soliq va bojxona, shu jumladan individual xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar hisobiga qo'llab-quvvatlash amaliyotining keng tarqalganligi;

- davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq ma'muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi;

- o'tkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va insofli tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga to'sqinlik qiluvchi nazorat faoliyatini amalga oshirishda xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi yo'qligi;

- mahalliy soliq va yig'implarning ma'muriyatchiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig'iluvchanlik darajasi etarli emasligi, shuningdek, ko'chmas mulk va er uchastkalarini to'liq hisobga olish va qiymatini ob'ektiv aniqlashning mavjud emasligi.

Adabiyotlar sharhi. Professor Q.A.Yahyoeyevning fikricha, "Soliq xizmati idoralari tizimi bu soliqlar va yig'implarni to'g'ri hisoblash va to'liq byudjetga (byudjetdan tashqari fondlarga) tushishini nazorat qiluvchi davlat soliq xizmati idoralari yig'indisidir.

Soliq nazorati turlari. Soliq nazoratining turlari uch guruhga bo'linadi:


1. Dastlabki nazorat (reja prognozlar tuzish, ma'lumotlar yig'ish va boshqalar)

2. Joriy nazorat (moliyaviy, soliq hisobotlari, hisobotlarni qabul qilish tekshirish shu erda dastlabki, rejalar bajarilishini tahlil qilish va boshqalar)

3. So'nggi nazorat (joylarga borib tekshirishlar o'tkazish, audit, inventarizatsiya va har xil reviziyalar o'tkazish)

Davlat soliq xizmati idoralari hamma turdagi nazoratlarni amalga oshiradilar." [2]. - deb ta'rif bergan.

Professor A.V.Vahobov, A.Jo'raevlar soliq nazoratiga to'xtalib, "Soliqqa oid qonunbuzilishlarning oldini olish va ularga barham berish amaldagi tadbirlarni va usullarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqazo qiladi. Soliqqa oid jinoyatlarning o'sishi davlatning moliyaviy resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi va buning oqibatida davlat soliqsiz tushumlarni qidirishga



1-rasm. Soliq tekshiruvlarining turlari va o'tkazish muddatlari

Manba: Muallif tomonidan tadqiqotlar asosida ishlab chiqildi.

majbur bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida davlatning ichki va tashqi qarzlarning o'sishiga olib keladi." [3] deb fikr bildirishgan.

PhD B.A.Normatov tomonidan soliq tekshiruvi bo'yicha jahon modellari, xususan Anglo-sakson modeli (Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya), Romano-german modeli (Germaniya, Fransiya, Yaponiya), Aralash modeli (AQSh, Kanada) va MDH davlatlari modeli tahlil qilingan holda «soliq tekshiruvi» tushunchasi xorijiy davlatlarda «tax audit» tushunchasi bilan ifodalanishi qayd etilgan, shuningdek jahon tajribasiga ko'ra soliq tekshiruvlari tipik ikki turga: kameral soliq tekshiruvi (desk audit) va sayyor soliq tekshiruviga (field audit) bo'linishi, risk boshqaruv tizimi xorijiy davlatlarda turlicha, xususan «Risk management system», «Tax compliance management system», «Compliance Strategy» nomalanishi qayd etiladi, shuningdek risk boshqaruv tizimini ishlab chiqishdan maqsad soliqqlarni undirish jarayonida soliq organi xodimlari va soliq to'lovchilarning qasddan yoki ehtiyotsiz harakati (harakatsizligi) natijasida soliq tushumlari kamayishi yoki to'lanmasligini istisno etish hisoblanishi hamda mazkur tizim nafaqat soliq sohasida balki moliya, bank, bojxona va ma'muriy sohalarida ham qo'llanilishi to'g'risida xulosaga kelingan. [4]

Xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida bugungi kunda davlat soliq ma'murchiligini mexanizmi sifatidagi muammosi tadqiq etilgan, soliq ma'murchiligini shakllari va turlari tasniflangan. Davlat soliq ma'murchiligini mexanizmini alohida yo'nalishlari bo'yicha: M.V.Mishustin tomonidan davlat soliq ma'murchiligi mexanizmi [5], N.N.Kunyaev, O.Yu.Sherbakova tomonidan davlat soliq organlari boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida hujjatlar aylanishini ta'minlash [6, 7], V.A.Krasnitskiy tomonidan soliq tushumlari salmog'ini prognozlashning iqtisodiy-matematik modellari [8], I.A.Peronko tomonidan soliq nazoratini tashkil etish va soliq nazoratini takomillashtirish muammolari [9], D.G.Korovyakovskiy tomonidan davlat soliq xizmati organlarining axborot xavfsizligini ta'minlashda soliq nazoratining huquqiy asoslari [10], I.Yu.Timofeeva tomonidan davlatning soliq tizimining xavfsizligi, soliq tizimida soliq nazoratini samarali shakllantirishning konstepstiyasi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning soliq

majburiyatlarini bajarilishini ta'minlashda soliq nazorati metodologiyasi [11] bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarning soliq ma'muriyatchiligi, soliq nazorati, soliq nazorati shakllari, soliq tekshiruvlari, soliq monitoringi, soliq nazorati metodologiyasiga bag'ishlangan ilmiy asarlari o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat Soliq Qo'mitasi ma'lumotlarining tahlilida statistik ma'lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil va solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv usullaridan foydalanildi.


Tahlil va natijalar muhokamasi. Mamlakatda ilg'or xorijiy tajriba asosida soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish hamda soliq to'lovchilarning soliq organlari bilan o'zaro munosabatlarida shaffoflikni ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga soliq maslahati davlatning yangi soliq siyosatini samarali amalga oshirishning professional instituti va soliqqlarni hisoblash va to'lash masalalarida soliq to'lovchilarning ishonchli yordamchisi sifatida etarlicha shakllanmagan. [12]

Davlatning samarali soliq sohasidagi islohatlarni amalga oshirishda soliq tizimini rivojlantirish dasturlari ijrosi amaliyotining jahondagi ilg'or tajribalari hamda bu borada O'zbekistondagi mavjud imkoniyatlarning tadqiqi asosida soliq nazoratini ta'minlashda mamlakatda va uning hududlarida, iqtisodiyot tarmoqlarida, yuridik va jismoniy shaxslarni soliq tortishda soliq nazorati metodologiyasining samarali vositalarini shakllantirish lozim.


Soliq nazorati soliq to'lovchilarni, soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni hisobga olishning, shuningdek soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat.

Soliq nazorati davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarni, soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq




2-rasm. 2023-yil yanvar oyi davomida o'tkazilgan kameral soliq tekshiruvlari

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari



3-rasm. 2023-yil yanvar oyi davomida "Avtokameral" tizimi orqali amalga oshirilgan tekshiruvdan oldingi tahlil natijalari

Manba.O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari



4-rasm. Soliq xizmati organlari tomonidan 2023-yil yanvar-fevral oylarida o'tkazilgan soliq auditlari natijalari

Manba.O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari

ob'ektlarni, byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish, soliq tekshiruvlari vositasida hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Vakolatli organlarning soliq to'lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishga doir faoliyati soliq nazoratidir.

Soliq organlari soliq nazoratini:

- 1.Soliq tekshiruvlari.
- 2.Soliq monitoringi shaklida amalga oshiradi.

Soliq tekshiruvlari soliq to'lovchilar, yig'implarni to'lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi.

Soliq tekshiruvi soliq to'lovchi to'g'risida soliq organlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Soliq organlari soliq tekshiruvlarining quyidagi turlarini o'tkazadi:

- 1.Kameral soliq tekshiruvi.
- 2.Sayyor soliq tekshiruvi.
- 3.Soliq auditi.

Quyidagilar soliq monitoringining predmetidir: soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish, o'ziga nisbatan soliq monitoringi o'tkazilayotgan yuridik shaxs tomonidan soliqlar va yig'implarni hisoblashning to'g'riligi, to'liq va o'z vaqtida to'langanligi (o'tkazib berilganligi).[13]

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida soliqlarni ortiqcha undirganlik uchun davlat soliq xizmati organlarining javobgarligi kuchaytirildi, zamonaviy usullarni qo'llagan holda xorijiy amaliyotda sinalgan soliq nazorati shakllari joriy etildi, shuningdek, soliqlarni hisoblash va to'lash tartiblari soddalashtirildi.

Yanvar oyi davomida kameral tekshiruvi jami soliq to'lovchilarning faqat 0,4 foizida o'tkazilgan. 2023-yil yanvar oyi davomida 2,7 mingta soliq to'lovchiga nisbatan kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilgan. Bu

respublika bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining (571 ming) 0,4 foizini tashkil etadi.

Ushbu tekshiruvlar natijasida 504,4 mlrd so'm qo'shimcha soliq hisoblangan.

Asosan quyidagi soliq turlari bo'yicha qo'shimcha soliq hisoblangan:

- QQS – 200,1 mlrd so'm;
- foyda solig'i – 130 mlrd so'm;
- JShODS – 53,7 mlrd so'm;
- aksiz solig'i – 38,6 mlrd so'm;
- yer solig'i – 19,6 mlrd so'm;
- AOS – 3,3 mlrd so'm.

Eng katta tafovut aniqlangan sohalar:

- ishlab chiqarish - 112,7 mlrd so'm;
- umumiy ovqatlanish va savdo - 62,6 mlrd so'm;
- qurilish - 70,4 mlrd so'm;
- qishloq xo'jaligi - 54,3 mlrd so'm;
- transport - 40,6 mlrd so'm.

Soliq to'lovchilarda 2023-yil yanvar oyi davomida o'tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlillar natijasida 14,1 trln so'mlik tafovutlar aniqlandi.

Shundan, 2,1 trln so'mlik tafovutlar yoki jami aniqlangan tafovutlarning 14,9 %i bartaraf etilgan:

- 1,2 trln so'm qo'shimcha soliqlar hisoblangan;
- 0,9 trln so'm tafovut bo'yicha hisobotlardagi ko'rsatkichlar tuzatilgan.

2023-yil yanvar-fevral oylarida soliq xizmati organlari tomonidan soliqlarni to'lamaslik xavfi yuqori bo'lgan 268 ta tadbirkorlik subyektida soliq auditi o'tkazildi. Bu ushbu davrda faoliyat ko'rsatgan jami soliq to'lovchilarning (579 ming) 0,05 foizini tashkil etadi.

- Aniqlangan soliq xavfi summasi – 124,2 mlrd so'm;
- Soliq auditida tasdiqlandi – 290,7 mlrd so'm.

Davlat soliq xizmati organlari tizimida soliq nazorati metodologiyasini amaliy tahlil qilish va nazariy tadqiq etish quyidagi kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi:

- soliq nazorati sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka to'liq implementatsiya qilinmagan.
- davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq nazoratini amalga oshirish zamonaviy shakl va uslublari to'liq rivojlantirilmagan.
- insofli tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga to'sqinlik qiluvchi soliq nazorati faoliyatini amalga oshirish zamonaviy shakl va uslublari etarlicha tadbir etilmagan.

Xulosa va takliflar

Ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlashda soliq nazorati metodologiyasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari biri davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni ta'minlash, soliqlarning soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'liq hamda o'z vaqtida tushishini ta'minlashdan iborat.

Bayon etilganlaridan ko'rinish turibdiki, hozirgi paytda soliq nazorati samaradorligini oshirishning yagona metodikasi mavjud emas. Biroq soliq nazoratidan samarali foydalanishning zamonaviy metodlari va mexanizmlari joriy etish, soliq tizimini xavfsizligini ta'minlash davlat soliq xizmati organlari tizimida soliq nazoratida ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda modernizatsiya qilish, soliq nazoratini tashkil etishning zamonaviy shakl va metodlaridan zarur darajada samarali foydalanishga harakat qilinmoqda.

Davlat soliq xizmati organlari tizimida soliq nazorati samaradorligini oshirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirishda «raqamli iqtisodiyot»ni

shakllantirish, shuningdek, soliq nazorati sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni jadallashtirish lozim.

- soliq nazoratining mutlaqo yangi tizimini yaratish, tekshiruvdan oldingi tahlil va masofaviy nazorat-tahlil ishlarini amalga oshirish uchun ma'lumotlarni to'liq yig'ish va qayta ishlashni ta'minlaydigan zamonaviy, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish choralari yanada kuchaytirish.
- davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etikani rivojlantirish va soliq nazorati samaradorligini oshirishda soliq qonunchiligi hujjatlarini ishlab chiqish metodologiyasi takomillashtirish.
- soliq nazorati jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tahlilning ilg'or avtomatlashtirilgan uslublari tadbir etish.

- davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublari rivojlantirish.

- insofli tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga to'sqinlik qiluvchi soliq nazorati faoliyatini amalga oshirish shakl va uslubi tadbir etish.

- soliq xavfini tahlil qilish va natijalarini baholash dasturiy mahsulotni qo'llashni yanada takomillashtirish lozim.

Soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, soliq ma'muriyatchiligining shaffofligini, soliq solish masalalarida soliq nazorati samaradorligini oshirish, shuningdek davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, tadbirkorlik sub'ektlarining ularga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz xizmat ko'rsatishni ta'minlaydigan «soliq to'lovchining shaxsiy kabineti»dan foydalanish manfaatdorligini oshirish va tashkil etishni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish, soliq organlarining tashkiliy-shtat tuzilmasi soliq solish ob'ektlarini to'liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirish, shuningdek soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida yig'ish uchun mavjud resurslarni safarbar qilish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Reference:

1. 2023 yil - «Insonga e'tibor va sifati ta'lim yili» Bunyodkor xalqimiz mustahilimizni mustahkamlab, barqaror taraqqiyot yo'lida dadil ildamlayveradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi "Xalq so'zi", 2022 yil 21 dekabr, № 272 (8334)
2. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti—Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. 183-185 betlar
3. Vahobov A.V., Jo'raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish.—Toshkent: Sharq, 2009. 309-bet.
4. B.A. Normatov. O'zbekiston Respublikasida soliq tekshiruvlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2020 yil.
5. Мишустин М.В. Механизм государственного налогового администрирования: Автореферат диссертации. - М., 2003.
6. Куняев Н. Н. История развития системы документационного обеспечения управления в налоговых органах на основе информационно-коммуникационных технологий: Монография. — М.: МФА, 2009.
7. Щербакова О.Ю. Экономико-математические модели для прогнозирования объемов налоговых поступлений. Автореферат диссертации. Ростов н/Д, 2001.
8. Красницкий В.А. Организация налогового администрирования. Автореферат диссертации, Краснодар, 2000.
9. Перонко И.А. Проблемы совершенствования налогообложения и пути их решения. Автореферат диссертации. М., 2001.
10. Коровяковский Д.Г. Правовое обеспечение информационной безопасности в налоговых органах. Автореферат диссертации., М., 2013.
11. Тимофеева И. Ю. Налоговая безопасность государства, бизнеса и общества: концепция и методология. Автореферат диссертации. М., 2011.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 sentyabrda "Soliq maslahati sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4846-son qarori
13. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. (yangi tahriri). Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y.
14. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrda «2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida»gi O'RQ-813-son Qonuni
15. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustda "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni. 474-I-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrda O'zbekiston Respublikasining «2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida»gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida PQ-471-son qarori